



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

18. Aliyeva, M.T. (2019). Economic aspects of managing tourism services in the conditions of economic liberalization (Example of the Republic of Uzbekistan). PhD dissertation abstract.
19. Alimov, A. (2018). Main directions and prospects of ecotourism development in the Republic of Karakalpakstan. PhD dissertation abstract.
20. Grand View Research. (2022). Ecotourism Market Size Report. Retrieved from <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/ecotourism-market-report>
21. World Tourism Organization. (2022). Global Ecotourism Market Statistics.

MILLIY TURIZM LOYIHALARINI XALQARO BARQARORLIK STANDARTLARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

*Kurbanova Mohinur Xabib qizi
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich
Bank va Moliya Akademiyasi magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarni xalqaro standart va mezonlarga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, Global Barqaror Turizm Kengashi mezonlari va boshqa xalqaro tajribalar asosida, O'zbekistonda turizm infratuzilmasining hozirgi holati, ekologik va madaniy meros obyektlaridan foydalanish, mahalliy hamjamiyatlarning ishtiroki hamda davlat-xususiy sheriklik modeli doirasidagi barqarorlik yondashuvlari ko'rib chiqilib, ularni xalqaro andozalar asosida rivojlantirish bo'yicha konseptual va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, xalqaro standartlar, barqaror rivojlanish maqsadlari, ekologik mas'uliyat, turizm infratuzilmasi

Kirish

So'nggi yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi global darajada ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, bu yondashuv turizm sohasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, turizmning atrof-muhitga, mahalliy madaniyat va iqtisodiyotga ta'siri chuqurroq tahlil etilar ekan, barqarorlik mezonlariga asoslangan yondashuvlar ko'plab mamlakatlar milliy turizm strategiyalariga integratsiya qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari, Global Barqaror Turizm Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar va YUNESKO tamoyillari xalqaro miqyosda barqaror turizmni rivojlantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham bu jarayondan chetda qolmay, turizm sohasida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan qator milliy loyihalarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, mazkur loyihalarning xalqaro barqarorlik mezonlariga qanchalik mosligi, ularni to'laqonli integratsiya qilishdagi institutsional, infratuzilmaviy va boshqaruvga oid omillar hanuzgacha tizimli tahlilni talab etadi.

Mazkur maqola O'zbekistonda turizm sohasini xalqaro barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud to'siqlar va istiqbollarni baholash hamda xalqaro tajriba asosida amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Barqaror turizm konsepsiyasi jahon ilmiy-amaliy adabiyotida 1980-yillardan boshlab shakllana boshlagan bo'lib, bu tushuncha turizmning iqtisodiy manfaatlari bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida talqin etiladi. Brundtland hisobotida keltirilgan barqaror rivojlanish ta'rifi ushbu kontsepsiya uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Shundan so'ng, Global Barqaror Turizm Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar turizmni rejalashtirish va baholashda xalqaro standartga aylandi.

Berno va Bricker barqaror turizmni amaliyotga tatbiq etishdagi asosiy muammolarni aniqlab, turizm sohasining fragmentar tuzilishi, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshi manfaatlar va boshqaruvdagi izchillik yetishmasligini asosiy to'siqlar sifatida qayd etganlar. Ular, shuningdek, barqaror turizmni amalga oshirishda davlat siyosati va transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi kuch muvozanatining muhimligini ta'kidlaydi.

Sharpley esa barqaror turizm nazariyasining amaliyotga moslashishda duch keladigan chalkashliklarini tahlil qilib, bu tushunchaning aniq chegaralarga ega emasligi sababli u turli manbalar tomonidan turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. Bu esa turizm sohasida yagona barqarorlik modeli ishlab chiqishni murakkablashtiradi.

Swarbrooke esa barqaror turizmni muvozanatli resurs boshqaruvi, jamoatchilik ishtiroki va iqtisodiy manfaatlar uyg'unligi asosida amalga oshirilishini taklif qiladi. Uning fikricha, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olmagan har qanday barqarorlik siyosati muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

O'zbekiston tajribasiga oid adabiyotlar soni nisbatan kam bo'lishiga qaramay, so'nggi yillarda bu yo'nalishda ilmiy va amaliy izlanishlar faollashgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, 2019–2025 yillarga mo'ljallangan Turizmni rivojlantirish strategiyasi, "Yashil makon", "Ekoturizm" va "Ziyorat turizmi" kabi dasturlar milliy loyihalarning barqarorlik mezonlariga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning xalqaro mezonlar bilan to'laqonli uyg'unlashuv darajasi hali to'liq tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili barqaror turizm bo'yicha nazariy asoslar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni milliy darajadagi loyihalarga samarali tatbiq etish uchun holatga moslashtirilgan, tizimli yondashuv va normativ asoslar zarurligini ko'rsatadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda turizm sohasidagi milliy loyihalarning xalqaro barqarorlik mezonlariga mosligini aniqlash, ularni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini baholash maqsadida adabiyotlar tahlili, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert intervyular kabi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Milliy turizm loyihalarini xalqaro barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish sohasida olib borilgan tahlillar ko'rsatdiki, O'zbekistonning turizm sektori so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda, biroq barqarorlik prinsiplarini to'liq joriy etish uchun hali ko'p ishlar bajarilishi zarur.

Quyidagi 1-jadvalda milliy turizm loyihalarining barqarorlik mezonlari bo'yicha xalqaro talablar bilan taqqosiy ko'rinishi tasvirlangan. Unda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlardagi amaldagi holat va xalqaro standartlar orasidagi tafovut aniq ko'rinadi.

1-jadval

Milliy turizm loyihalari va xalqaro barqarorlik darajasi¹

Barqarorlik yo'nalishi	Tavsifi	Milliy loyihalardagi daraja (%)	Xalqaro talablar (%)	Tafovut (%)
Ekologik	Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni boshqarish	65	90	25
Ijtimoiy	Mahalliy jamoalarni jalb qilish, madaniy merosni saqlash	55	85	30
Iqtisodiy	Barqaror investitsiyalar, ish o'rinlari yaratish	70	95	25

Ekologik barqarorlik bo'yicha milliy loyihalar 65% darajada bajarilayotgan bo'lsa, xalqaro mezonlar 90% ni talab qiladi. Bu esa ekologik boshqaruvda muayyan sustkashliklar borligini ko'rsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Ijtimoiy barqarorlik darajasi eng past ko'rsatkichga ega bo'lib, 55% ni tashkil etadi. Bu holat mahalliy jamoalarni loyihalarga jalb qilish va ularning manfaatlarini hisobga olish yetarli emasligini anglatadi. Xalqaro mezonlarda bu daraja 85% atrofida belgilangan.

Iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari nisbatan yaxshi (70%), biroq bu ham xalqaro talablar (95%) darajasidan ancha past. Bu esa turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmi va barqaror moliyaviy modelning yo'qligini bildiradi.

Milliy turizm loyihalarida barqarorlik yo'nalishlari bo'yicha ijobiy harakatlar mavjud bo'lsa-da, ular xalqaro mezonlarga to'liq mos emas. Ayniqsa, ijtimoiy va ekologik jihatlar bo'yicha sustkashliklar sezilarli. Bu esa barqaror turizm taraqqiyoti uchun strategik islohotlarni talab qiladi.

Shuning uchun, ekologik xavfsizlikni oshirish, ijtimoiy adolat va mahalliy hamkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy foydalilikni ta'minlash, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish maqsadda milliy turizm loyihalarini barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish modelini taklif etamiz.

"Milliy turizm loyihalarini xalqaro barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish" modeli mahalliy turizm tashabbuslarini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuv bo'lib, xalqaro mezonlarga moslik, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, jamiyat manfaatlarini inobatga olish, monitoring va baholash hamda ko'p tomonlama hamkorlik kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olib, uning yordamida O'zbekiston turizm sohasida global miqyosdagi ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli rivojlantirilishi, xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Diagnostika	Integratsiya	Investitsiyalarni jalb qilish	Mahalliy ishtirok	Monitoring
Milliy loyihalarining hozirgi holatini xalqaro barqarorlik mezonlari asosida baholash	Xalqaro standartlarga mos keluvchi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarni milliy rejaga integratsiya qilish	Xususiy sektor va xalqaro donorlarni jalb qilish orqali barqaror investitsiyalarni kengaytirish	Mahalliy jamoalarni qarorlar qabul qilish va manfaat taqsimotiga faol jalb qilish	Loyihalarning barqarorlik darajasini muntazam baholab borish va audit tizimini yo'lga qo'yish

1-chizma. "Milliy turizm loyihalarini xalqaro barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish" modeli¹

Birinchi bosqichda mavjud turizm loyihalari, ularning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qanday ishlayotgani o'rganiladi, xalqaro barqarorlik mezonlari, xususan, Global Barqaror Turizm Kengashi standartlari bilan solishtirilib, mavjud kamchiliklar aniqlanadi.

Mezonlarni moslashtirish bosqichida xalqaro talablarni milliy turizm siyosatiga integratsiya qilish maqsadida xalqaro barqarorlik mezonlari milliy qonunchilik va mahalliy sharoitlar bilan uyg'unlashtirilib, zarur bo'lsa, yangi reglament va ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Investitsiyalarni jalb qilish bosqichida xususiy, davlat va xalqaro moliyaviy resurslarni safarbar etish, UNDP, IFC, GEF kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, yashil investitsiyalar va ekologik texnologiyalarni jalb etish orqali barqaror turizm infratuzilmasini rivojlantirishda sarmoyadorlar uchun imkoniyatlarni oshiradi.

Mahalliy ishtirokni kuchaytirish bosqichida mahalliy aholi va manfaatdor tomonlar turizm loyihalariga faol jalb qilinishi natijasida mahalliy xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirilib, aholining daromad topish imkoniyatlari kengaytirilishiga erishiladi.

Beshinchi bosqichda turizm loyihalarining barqarorlik ko'rsatkichlari muntazam nazorat qilinib, ichki va tashqi auditorlar orqali mustaqil baholash mexanizmi joriy qilinishi natijasida loyihalarning barqarorlik bo'yicha samaradorligi aniqlanadi va takomillashtirishga imkoniyat yaratiladi.

¹ Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi bosqichlar izchil amalga oshirilishi natijasida xalqaro mezonlarga mos, raqobatbardosh, barqaror va mahalliy manfaatlarga xizmat qiluvchi turizm tizimi shakllanadi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish oldidan xalqaro standartlarga mos qonunchilik bazasini yangilash, turizm mutaxassislari va hokimiyat vakillari uchun treninglar, har bir mintaqada barqarorlik mezonlariga mos eksperimental turizm zonalarini, turizm loyihalarining barqarorlik indikatorlarini onlayn baholab borish tizimini joriy etish muhim sanaladi.

Xulosa

O'zbekiston turizm sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, milliy turizm loyihalarining barqarorlik jihatidan xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi kuzatilmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ayniqsa ekologik muhofaza, mahalliy jamoalarning ishtiroki va iqtisodiy barqarorlik bo'yicha muayyan tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar milliy loyihalarining xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini cheklab qo'ymoqda.

Shu bois maqolada taklif etilgan "Milliy turizm loyihalarini xalqaro barqarorlik mezonlari bilan uyg'unlashtirish" modeli milliy turizm loyihalarini xalqaro barqarorlik mezonlariga muvofiqlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Model asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan diagnostika, integratsiya, monitoring, mahalliy ishtirokni kuchaytirish va sarmoya jalb qilish yo'nalishlari turizm sohasida chuqur va barqaror rivojlanish uchun muhim zamin yaratadi.

Kelgusida O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos huquqiy-me'yoriy baza shakllantirish, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvlarni keng joriy etish, hamkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish zarur ahamiyat kasb etadi.

Shunday yondashuvlar orqali nafaqat turizm sohasining iqtisodiy samaradorligi ortadi, balki atrof-muhit, madaniy meros va mahalliy jamoalarning manfaatlari ham hamohang ravishda himoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brundtland, G. Our Common Future / G. Brundtland. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 400 b.
2. Butler, R. W. Sustainable tourism: A state-of-the-art review // Tourism Geographies. – 1999. – Vol. 1(1). – P. 7–25.
3. Berno, T., Bricker, K. Sustainable Tourism Development: The Long Road from Theory to Practice // International Journal of Economic Development. – 2001. – Vol. 3(3). – P. 1–18.
4. Sharpley, R. Tourism and Sustainable Development: Exploring the Theoretical Divide // Journal of Sustainable Tourism. – 2000. – Vol. 8(1). – P. 1–19.
5. Swarbrooke, J. Sustainable Tourism Management / J. Swarbrooke. – Oxford: CABI Publishing, 1999. – 381 b.
6. Global Sustainable Tourism Criteria. Global Sustainable Tourism Council (GSTC). <https://www.gstcouncil.org>
7. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Development Goals (SDGs). <https://sdgs.un.org/goals>

PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPING OF KAGAN REGION AS TOURISM DESTINATION BASED ON MICE TOURISM

*Kuvandikov Aziz Ravshanovich - PhD researcher
Tourism and hotel management department
Bukhara state university*

Abstract: *the spatial development of tourism and the developing broadening of this action within the world make openings for nations, districts and communities to look for to bring almost their development. A cluster could be a dynamic frame of commerce organize, which has solid commerce destinations centering on making strides deals and benefits. It makes the trade of data and innovation possible, encouraging different ways of co-ordination and collaboration inside them.*

Kadirova Shafoat Khabibulloevna. THE ROLE OF ONLINE TOUR OPERATORS IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN	71
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Istamova Robiyabegim Rivojiddin qizi. INKLYUZIV TURIZM O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-IQTISODIY INKLYUZIYANING VOSITASI SIFATIDA	77
Naimova Surayyo. AGROTURIZM OBYEKTARIDA INKLYUZIV INFRATUZILMANI YARATISH STRATEGIYALARI.....	82
Odil Radjabov, Dilshoda Toirova. PROSPECTS FOR IMPROVING ACCESS TO CULTURAL HERITAGE SITES IN BUKHARA FOR PEOPLE WITH DISABILITIES	87

3-SHO'BA. BARQAROR TURIZM: EKOLOGIK, MADANIY VA IQTISODIY MUVOZANAT SARI YO'L

ERMUKBAEVA INDIRA PULATBEK QIZI. INTEGRATING GREEN ECONOMY PRINCIPLES INTO SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT: A PATHWAY TO ECO-EFFICIENT ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	92
Khalimova Nigina Jafarbekovna, Umedova Madinabonu Shuxratovna. PRACTICE AND PROSPECTS FOR ACHIEVING INTERNATIONAL AND NATIONAL GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: THE ROLE OF TOURISM	95
Khayrullaeva Nilufarbegim Nematillo kizi. ENHANCING METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ECOTOURISM DEVELOPMENT: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN'S PERSPECTIVES.....	99
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. MILLIY TURIZM LOYIHALARINI XALQARO BARQARORLIK STANDARTLARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....	103
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPING OF KAGAN REGION AS TOURISM DESTINATION BASED ON MICE TOURISM	106
Maxmudova Nodira Uktamovna. O'ZBEKISTONDA TALABALAR TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARIGA TA'SIRI	113
Kilichov Mukhriddin. MANAGING SUSTAINABLE TOURISM ON A STATISTICAL BASIS: SCIENTIFIC AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE SF-MST SYSTEM	116
Kurbonova Zebiniso Azimovna. THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE AND CREATIVE TOURISM IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM	123
Рузиева Махбуба Тулкиновна. АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ РАЙОНОВ ПО ТУРИСТИЧЕСКОМУ ПОТЕНЦИАЛУ: ОБЗОР НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ.....	131
Тойирова Сарвиноз Атоевна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА: РАЗВИВАЮЩИЕСЯ ПРАКТИКИ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	135
Yunusova Sohiba Abdulmamidovna. TURISTIK TADBIRKORLIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA TENDENTSIYALAR	140
Axmatova Moxigul Ergash qizi, Yusupova Dilnoza Ixtiyer qizi. KO'NGILOCHAR TURIZMNING MEHMONDO'STLIK SANOATIDAGI O'RNI	143
Сирлибеков Хабибулло Шакарбой углы. ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА	146

4-SHO'BA. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR TURIZM SOHASIDA: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOL

Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	149
Axmatova Mohigul Ergash qizi. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI SIFATINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI	151